

JAMIYATDAGI AXLOQIY MUAMMOLARNING BADIY TALQINI (ERKIN A'ZAMNING “MOMAQALDIROQ OSTIDA SAYR” QISSASI ASOSIDA)

Nomozaliyeva Hilolaxon

*Qo'qon davlat universiteti. Gumanitar fanlar va tillar fakulteti
2-kurs talabasi.*

Qurbonova Feruza A'zamovna

*Qo'qon davlat universiteti.
O'zbek tili va adabiyoti kafedrasida katta o'qituvchi.*

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy adabiyotdagi ayol timsolining ijtimoiy jihatlari, uning ruhiy holati, ichki dunyosi va jamiyat bilan kurashlari asosiy markazida turadi. Shuningdek, psixologik tasvir va badiiy-estetik vositalar orqali ayol obrazining axloqiy va ma'naviy qiyofasi ochib beriladi. Maqola jamiyatdagi axloqiy muammolarni asar personajlari orqali talqin etish, ayol timsoli orqali zamonaviy ijtimoiy masalalarni yoritish va uning adabiyotdagi g'oyaviy ahamiyatini ko'rsatishga qaratilgan.

Kalit so'zlar: jamiyatda ayol timsoli, badiiy adabiyot, jamiyat hayoti, ijtimoiy rol, shaxs erkinligi, ruhiy olam, zamonaviy adabiyot, ayol psixologik kechinmasi.

KIRISH

Adabiyot va axloq xalq ma'naviyatining asosiy tayanchidir. Badiiy asarlar orqali yoshlar qalbida ezgulik, halollik va mas'uliyat tuyg'usi shakllanadi. Axloq esa insonning jamiyatdagi xulq-atvori va qadriyatlarini belgilaydi. Prezidentimiz “Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi” kitobida shunday yozadi: “Jamiyatimizda sog'lom fikr, sog'lom kuch ustuvor bo'lishi uchun biz ma'naviy hayotimizni yuksaltirish, aholi, avvalo yoshlarimizni turli zararli ta'sirlardan asrash, ularni har tomonlama yetuk insonlar qilib tarbiyalash haqida muttasil o'ylashimiz, faol ish olib borishimiz zarur”. Ma'lumki, badiiy adabiyot inson ruhiyati, his-tuyg'ulari va jamiyat hayotini aks ettiruvchi muhim san'at turidir. Unda ayol obrazi alohida o'rin tutib, mehr-muhabbat, sadoqat va matonat timsoli sifatida tasvirlanadi. Turli davr va adabiy yo'nalishlarda ayol qiyofasi o'ziga xos tarzda talqin etilgan. Ba'zan u ojiza, zaif inson bo'lsa, ba'zan esa jamiyatda o'z o'rnini izlayotgan kuchli shaxs sifatida namoyon bo'ladi. Shu bois ayol obrazi badiiy adabiyotda insoniy fazilatlar va ijtimoiy muammolarni yoritishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Zamonaviy adabiyotda ayol obrazi nafaqat badiiy ifoda vositasi, balki jamiyatning ma'naviy-axloqiy holatini aks ettiruvchi muhim hisoblanadi. Adabiy obrazlar orqali yozuvchi o'z davrining ijtimoiy muammolarini, insoniy kechinmalarini va insonlar o'rtasidagi ziddiyatlarni ochib beradi. Ayniqsa, ayol obrazi orqali jamiyatdagi axloqiy masalalar, gender munosabatlaridagi noaniqliklar, shaxsiy erkinlik va ma'naviy qadriyatlar aniq tasvirlanadi. Shu jihatdan zamonaviy badiiy adabiyotda ayol timsolining tahlili nafaqat adabiyotshunoslik, balki sotsiologiya, psixologiya va axloqshunoslik nuqtai nazaridan ham muhim ahamiyatga ega.

Erkin A'zamning “Momaqalldiroq ostida sayr” qissasi zamonaviy o'zbek adabiyotida ayol obrazini ijtimoiy muhit buzilishlar va shaxsiy kurashlar bilan bog'liq holda tasvirlashda o'rnak bo'la oladigan asarlardan biridir. Qissada ayollar nafaqat o'z shaxsiy orzu va istaklari, balki

jamiyatdagi adolatsizlik, ijtimoiy tengsizlik va axloqiy inqiroz bilan yuzma-yuz keladi. Ularning ichki dunyosi, ruhiy kechinmalari orqali muallif o'quvchiga jamiyatning ichki muammolarini ko'rsatadi, ayol timsoli bilan esa zamonaviy vaziyatning murakkabligini ochib beradi. Maqola ayol obrazining hozirgi davr adabiyotdagi rolini, uning shaxsiy va ijtimoiy mas'uliyatlarini, hamda jamiyatdagi axloqiy va ma'naviy muammolar bilan bog'liq vazifalarini yoritishga qaratilgan.

“Momaqalldiroq ostida sayr” qissasida ayol obrazi odatiy xarakter darajasida emas, balki jamiyatdagi axloqiy muammolarni ifodalovchi bosh qahramon sifatida namoyon bo'ladi. Asarda ayolning kechinmalari, iztiroblari va hayotiy tanlovlari orqali muallif zamonaviy hayotdagi ma'naviy bo'shliqni ochib beradi. Asarda ayol shaxsiyati ikki muhitda ya'ni o'zi va atrofidagi insonlar, ularning ta'sirlari bilan kurashadi. Jamiyat uni ma'lum ijtimoiy rollarni bajarishga majbur etsa, ichki olamida u erkinlik, tushunilish va mehrga ehtiyoj sezadi. Ana shu ziddiyat ayol ruhiyatida iztirob va ikkilanishlarni yuzaga keltiradi. Muallif psixologik tasvir vositalari orqali qahramon qalbidagi nozik kechinmalarni ochadi.

Asardagi obrazlar jamiyatdagi insoniylik fazilatlarini va xalqchilikning yemirilishini tasvirlaydi. Odamlar o'rtasidagi samimiyatning susayishi, manfaatparastlikning kuchayishi, insoniy munosabatlarning yo'qolishi ijtimoiy muhitda turli xil muammolarni yuzaga keltiradi. Bugungi kunda keng tarqalgan o'z manfaati uchun odamlar bilan do'st tutunish, ularning yaxshi bo'lishini istashmasada yomon kunlarida, qiynalgan paytlarida yordam bergandek ko'rinish, zimdan yomonlik qilish kabi holatlar ko'p uchramoqda. Asarda esa aynan shunday illatlar Qori aka, Jamolzoda, Iskandar, Muflixa kabi obrazlar orqali ochib berilgan. Ular mansabparast, shon-shuhrat uchun hamma ishga tayyor, ikkiyuzlamachi insonlarning qilmishlarini ko'rsatib beradi.

Bu asarni o'qish davomida, odamlarning gapiga kirib yoxud bir qizga erisha olmaganini uchun o'z kelajagini barbod qilgan G'ayratning g'ayratsizligi, biror ishga mas'uliyat bilan yondashmasligi, yaqinlariga bee'tibor bo'lishi, shoshqaloqlik bilan qaror chiqarishi sababli hayotining qolgan qismini kulfatda o'tkazgan inson tasvirida ko'rinadi.

Ushbu qissada ayol ruhiyati chuqur psixologizm asosida tasvirlanadi. Muallif tashqi voqealardan ko'ra, qahramonning ichki dunyosiga ko'proq e'tibor qaratadi. Uning harakatlari, ichki monologlari, xotiralari va ko'p ishlarda ikkilanishlari orqali ayol qalbining nozik qatlamlari ochib beriladi. Masalan, Oyravshan yaqinlaridan doimo qiyin paytida yordam, suyanch, mehr, e'tibor va maqtovlar kutadi, lekin ko'p hollarda unga nisbatan befarq bo'lishadi. Bunday vaziyatda yomon niyatli kishilar qo'lga tushgan sodda qizning hayotini tubdan o'zgartirib yuborgadigan “voqea” sodir bo'ladi, keyinchalik, bu ish orqali kun kechira boshlaydi. Uning fikrlashi, ma'naviy yetukligi shuningdek xalq oldida ko'zga ko'ringan shoirligi ota-onasining, tug'ilib o'sgan vatanining faxri bo'lish o'rniga uni salbiy voqealariga sababchi bo'ladi. Natijada u o'z qadr-qimmatini, orzu-intilishlarini asta-sekin boy bera boshlaydi. Ilgari el hurmatiga sazovor bo'lgan iste'dodi endi noto'g'ri yo'llarda sarflanib, uning nomiga dog' tushiradi.

Shu jihatdan qaraganda, bugungi kunda axloq masalasi mamlakat va jamiyat taraqqiyotida hal qiluvchi ahamiyat kasb etayotganini alohida ta'kidlash zarur. Agar tarbiya, ma'naviyat va ma'rifat bilan faqat ayrim sohalar emas, balki butun jamiyat va davlat tizimli ravishda shug'ullanmasa, ijtimoiy-ma'naviy barqarorlikni ta'minlash qiyinlashadi. Zero,

sog'lom axloqiy muhit shakllanmagan joyda taraqqiyot ham izchil bo'lmaydi. Shuning uchun har bir oila, ta'lim muassasasi va jamoatchilik bu masalaga mas'uliyat bilan yondashishi lozim. Faqat shundagina ma'naviy yetuk, barkamol avlodni voyaga yetkazish mumkin bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, qissasda jamiyatdagi axloqiy muammolar ayol obrazi orqali juda sodda va ta'sirchan qilib ko'rsatilgan. Asardagi ayol taqdiri orqali mehrning kamayishi, befarqlik va mas'uliyatsizlik kabi holatlar ochib beriladi. Ayolning ruhiy og'riqlari aslida jamiyatning ichki dardini ifodalaydi. Yozuvchi shu yo'l bilan odamlarni o'z xatti-harakatlari haqida o'ylashga chaqiradi.

Asar shuni ko'rsatadiki, agar oilada hurmat, e'tibor va to'g'ri tarbiya bo'lmasa, jamiyatda ham muammolar ko'payadi. Shuning uchun, avvalo, ayolga bo'lgan munosabatni yaxshilash, oilaviy qadriyatlarni mustahkamlash kerak. Demak, qissa nafaqat muammoni ko'rsatadi, balki jamiyatni tuzatish haqida ham muhim xulosa beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev, Sh. M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2022.
2. <https://yuz.uz/uz/news/ijtimoiy-axloq--yangilanayotgan-jamiyat-orzusi>
3. A'zam, E. Qissalar. – Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi nashriyoti, 2015.
4. A'zam, E. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Sharq nashriyoti, 2019.
5. Karimov, N. XX asr o'zbek adabiyoti tarixi. – Toshkent: O'qituvchi, 2016.
6. Yo'ldoshev, Q. Adabiyotshunoslik nazariyasi asoslari. – Toshkent: Akademnashr, 2018.
7. Qo'shjanov, M. O'zbek adabiyoti va ma'naviyat masalalari. – Toshkent: Fan, 2017.
8. Rasulov, A. Badiiy asarda obraz va xarakter. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2014.